# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

# MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

# ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

***mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami***

***(2024-yil 17-18-may)***

***(2-qism)***

**JIZZAX-2024**

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

меняет всю структуру урока и его назначение. Необходимо конкретно определить соответствующую роль и место компьютера в учебном процессе, уточнить и детерминировать основные понятия, внедрить методические и технические аспекты. При построении учебного процесса с применением компьютерных обучающих программ следует выбрать конкретный раздел из рабочей программы; спроектировать набор заданий; выбрать программные средства для подбора заданий; провести экспертизу подобранных компьютерных заданий; разработать методические рекомендации для обучающегося. Работа с компьютером не только способствует повышению интереса к учебе, но и дает возможность регулировать предъявление учебных задач по степени трудности, а также поощрять правильные решения. Кроме того, компьютер позволяет полностью устранить одну из важнейших причин отрицательного отношения к учебе – неуспех, обусловленный непониманием материала или проблемой в знаниях. Именно этот аспект и предусмотрен авторами многих компьютерных обучающих программ. Обучаемому предоставлена возможность использовать различные справочные пособия и словари, которые можно вызвать на экран при помощи одного лишь щелчка мышкой. Работая на компьютере, студент получает возможность довести решение задачи до конца, опираясь на необходимую помощь.

Таким образом, использование информационных технологий в обучении иностранным языкам не только содействует повышению интереса студентов к предмету, но и активизирует их мыслительную деятельность, делая процесс обучения более эффективным и увлекательным..

**Литература:**

1. К.Д. Ушинский .Собрание сочинений., М.1974 г

2. Использование современных информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе Составители: Пегов А.А., Пьяных Е.Г. 2010г.

3. Применение компьютерных технологий при обучении иностранному языку О.Н. Кочмар г. Якутск E-mail: lylloo@mail.ru

4. Эрназарова Мархабо Нарбаевна Формирование мировоззренческих принципов подрастающего поколения EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) 2021

## ZAMONAVIY DRAMATIK ASARLARDA INSON VA BORLIQ TALQINI

**Qo‘ziboyeva Lolaxon Saidrasul qizi**
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Istiqlol yillarida yaratilgan, Qo‘chqor Norqobilning “Biz ham odammiz”, “Zamindan olisga ketma” dramasida inson va borliq talqinining muallif badiiy estetikasidagi tasviri ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Inson, borliq, drama, obraz, psixologiya.

Albatta, adabiyot o‘z davrining dolzarb muammolarini yoritib ko‘rsatishi kerak. U bu bilan kishilarning diqqat-e’tiborini ma’lum masalaga jalb etadi. Biroq davrning dolzarb muammolarini mavzu qilib olishning o‘zigina asarning ta’sirchanligi, zamonaviyligini ta’minlamaydi. Tarixiy voqealar qalamga olinsa-da, zamonaviy mavzudagi asarlardan ko‘ra ta’sirchanroq, qiziqarliroq asarlar talaygina. “Adabiyotning hayotni aks ettirish, o‘rganish, hayot ustidan hukm chiqarish va hayotni qayta qurish quroli ekani, uning yana bir xosiyatini keltirib chiqaradi. Bu xosiyat–zamonaviylikdir ”. Qo‘chqor Norqobilning “Biz ham odammiz” dramatik asari tarix voqealarining bugungi zamonaviy dramaturgiyada qanday aks ettishini asoslab beradi. Asarning birinchi ko‘rinishidanoq onaning urushga bo‘lgan nafrati va og‘riqli monologiga duch kelamiz. O‘tmishning bugungi kungacha qoldirgan asoratlarini asar qahramoni Butunvoy qiyofasida ko‘ramiz. Dramaturg Izzat Sulton «Teranlik» maqolasida yozadi: «Tarixda nimaiki bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, shuni tarixiy-badiiy asarga mazmun qilib olaverish g‘oyaviy vazifasi notayin asarlarning maydonga kelishiga xizmat qiladi, xolos» . Mazkur mulohaza bugungi kunda zamonaviy mavzudagi dramatik asarlar uchun ham katta estetik ahamiyatga ega. Xususan, «Biz ham odammiz»da kuzatilayotganidek, qahramonlarning zohiriy belgilari ularning xarakter-xususiyatlarini, fe’li-faoliyatlarini ham asoslaydi. Pyesa qahramoni Butunvoy boshidan kuchli zarba va o‘ta og‘ir psixologik voqealarni boshidan o‘tkazganligi bois to‘g‘ri gapira olmaydi va vaqti-vaqti bilan o‘zidan ketib qolish kasalligiga chalinadi. U afg‘on urushidan mayib bo‘lib qaytgan. Majruh Inson qiyofasi obrazi jonlanadi. Afg‘on urushida qatnashishi Butunvoy tabiatida, psixologiyasida kelajakda sevgilisi Sora bilan turmush qurish orzulariga jiddiy evrilishlar sodir etadi. Butunvoy Afg‘on urushiga borib majruh holda qaytadi. Sog‘lom bolasining kamolini ko‘raolmagan Insonlar qiyofasini Jayron bobo – (cho‘pon) Gulsum momo obrazida harakterlaydi. Ko‘rinadiki, asar syujeti o‘ziga xos spetsifik xususiyatga ega. Har bir detal, ko‘rimsizdek tuyulgan tafsilot dramatik harakat izchilligiga, syujet rivojiga xizmat qildirilgan.

Muallif Insonning chin muhabbatga sodiqlik tushunchalarini tasvirlashda Sora obrazida tasvirlaydi. Soraning ichki kechinmalari jamiyat qonun-qoidalariga zid kelishidan qat’iy nazar u sodiq va vofo timsoli bo‘lib tasvirlanadi. Chunki Butunvoyning bu ahvoliga E’tibor bergan inson uning yonida bo‘lishni istamaydi. Sorani boshqa bir yoshi katta mahalla oqsoqoliga unushtirmoqchi bo‘ladi. Sora bunga rozi bo‘lmay uyidan bosh olib chiqib ketadi. Soraning tragik holatini asarda quyidagi manologlarda ko‘rishimiz mumkin.

Sora: Men yig‘lamay kim yig‘lasin, Butunvoy... Ko‘r bo‘lib qolsayam omon kelsin, dedim. Mayib-majruh bo‘lsayam o‘lmay kelsin, dedim. Iloyo qilday joni omon bo‘lsin, deb ikki yil tun-u kun duoyi joningizni qildim. Butunvoyim omon-eson keladi, dedim. O‘la-o‘lgunimcha Butunvoyim bilan birga bo‘laman, dedim. U menga va’dalar bergan, dedim. Butunvoyim meniki bo‘ladi, dedim... Uvvv, taqdirim o‘yilsin-a... Shu kunim ham ko‘plik qildimi, Butunvoy? Sizni deb yolg‘iz o‘tishimga ham qo‘yishmasa nima qilay, Butunvoy?

Muallif chin muhabbat va vafo tushunchalarini shu obrazga yuklaydi. Tasvirda va hatti harakatda ham asoslab ko‘rsatadi. Yana bir obraz Jayron bobo (cho‘pon) sodda va samimiy, ishonuvchan, to‘g‘rilik uchun har doim kurashib kelgan inson

qiyofasida kelgan. Jayron bobo haqiqat talab, irodali choʻponlardan. Asarda Qulmirzo obrazi muallif oʻz nomi bilan ataganday “Katta”larning quli. Kattalar nima desa yoʻrigʻiga yurib ketaveradigan irodasi sust inson qiyofasida asar syujetida harakatlanadi. Dramada uchta holat asar qahramonlari hayotini kompazitsiyasini tashkil etadi. Birinchi liniya Butunvoyning ahvoli va uning keyingi hayoti boʻlsa keyingi chiziq Jayron boboning “katta”larga qarshi turgan vijdoni, Uchinchi liniya chiziq Tilovoldi oʻgʻlining achinarli ahvoli. Chunki Jayron bobo Tilovoldi oʻgʻlidan kutgan orzularining sarobga aylanib qolishi. Bobo kutgandek farzand boʻlmaganligi. Tilovoldi vijdonsiz jamiyatning a’zosi boʻlib qolganligi Jayron boboni juda katta tashvishga solib qoʻyadi. Uning tanlagan insoni Zemfira hiyonatkor ayol Bobo uni oʻz kulbasida “Katta” bilan kelganini koʻrib oʻzi mehmon qilib yuboradi. Oʻgʻli esa shu qizga uylansam koʻp yutugʻlarga erishaman men hayotimni shu qiz bilan boshlashga qaror qabul qilib qoʻyganman siz bu gaplarga ishonmang deb oʻz oilasidan voz kechib shaharga joʻnab ketadi. Bobo va momoning butun orzu umidlari ana shunday sarobga aylanadi. Bobo shunda ham oʻzini ayblab men sizlarga harom luqma yedirganman shekilli shu “katta” larga sherik boʻlib xato qildim kasofati farzandlarimga urdi deya afsus nadomatlar chekadi. Asarning xulosasida Butunvoyning tilidan “Shunday odamlar borki, boʻri kabi vahshiylashib ketganlar, toʻrt oyoqli boʻridan emas ikki oyoqli boʻrilardan qoʻrqish kerak” degan keskin xulosalarni oʻqiymiz. Dramaturg zamonaviy dramada tarixning inson hayotidagi oqibatlarini tasvirlab berar ekan oʻz estetik qarashlarini milliy dramaturgiyamizga goʻzal tarzda takomillashtirganiga guvoh boʻlamiz. Umuman olganda, dramadagi voqealar asosida yoshlar xayoti yotadi. «Biz ham odammiz» pyesasida koʻrimlilikni (tomoshaviylikni) ta’minlovchi xatti-harakatlar tizimligidan koʻra his-tuygʻular koʻproq ustuvorlik kasb etadi. Ya’ni, unda qahramonlarning koʻngli, tuygʻu-kechinmalarini koʻrsatishga alohida e’tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, mohiyatan dramatik xarakterga ega boʻlgan voqealar, harakatlar tuygʻu va kechinmalar bilan uygʻun holda aks ettiriladi. Adibning diqqat-e’tiborini tortgan qahramonlar xatti-harakatini tuygʻular, kechinmalar takomili boshqaradi. Butunvoy va Soraning oʻzaro munosabatlari dramatik vaziyat kasb etsada, Tilovoldi va Zemfiraning ishqiy munosabatlari haqiqiy dramatik tragik vaziyatni keltirib chiqaradi. Dramaturg jamiyatda inson qadri-qimmati “kattalar” oldida sariq chaqalik qadri yoʻqligi, ojiz-notovon inson oddiy bir choʻponning fikr-u oʻylari uning vayron boʻlgan oilasini tasvirlar ekan barcha sabablarini aniq koʻrsatib bergan. Tilovoldining juda moʻrt e’tiqodi, muallif tomonidan juda keskin dramatik tarzda tasvirlangan. Sora obrazida muallif sadoqat timsolini yoritgan. Butunvoyga boʻlgan sodoqati hech qanday ta’riflarga sigʻmaydi. Qulmirza obrazida laganbardorlikni ismi va harakatlariga mos tarzida uygʻunlashitirgan. Dramaturg har bir qahramonni yaratishda oʻz ismilarini topib tasvirlagan. Bir qarashda asar maishiy mazmun kasb etganday tuyuladi. Aslida urush keltirib chiqargan bugunning fojialari aks etgan. “Zamindan olisga ketma” dramatik asarida muallif tabiat va inson oʻrtasidagi mutonosiblikni Olim, Begʻam, Toʻra kabi obrazlarda ochib bergan. Inson borliqni asrash uni avaylash kabi gʻoyalarni ilgari suradi. Muallif borliqdagi tizimni buzishda xudbin insonlar tasvirida Toʻra va Begʻam obrazida yaqqol anglatadi. Muallif bu mutonosiblik buzilsa quyidagi hollar sodir boʻlishni bir inson sifatida ogohlantirish

bermoqda. Asarda muallif o‘zining orzu o‘ylarini Insoniyatning ezgu maqsadlarini birgina Olim obrazida sahnaga olib chiqadi. Dramaturg asar syujetidagi konflektni antogonizm ya’niki o‘zaro ziddiyatli manfaatlar to‘qnashuvida harakatlantiradi. Insonlarga borliqni asrash o‘zligini qadrlash bilan barobar ekanligini asar syujetidan ham anglab olamiz.

Olim: – Odam bolasi, tabiat oldidagi qarzini uzolmaydi. –Bilasizmi, osmonni begunoh bolalar bilan daraxtlar ushlab turadi. Yo‘qsa, osmon yerga qulab tushadi, qapishib qoladi.– Daraxtlar ham ayollarga o‘xshaydi. Gullaydi. Achchiq-chuchuk, yaxshi-yomon meva beradi. Gullagan daraxtni kesish esa homilador ayolni o‘ldirish bilan barobardir.

Odamlar tabiatidagi yuksak insoniylik, ma’naviy yetuklik mezoni sifatida kishida vatanga muhabbat, or-nomus, fidoyilik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Ma’nan yetuk inson esa barcha ezgu ishlarni o‘z burchi deb biladi, bunga qalb amri, ruhiy ehtiyoj sifatida qaraydi. “Olim” obrazi ana shu harakterdagi zamonamizdagi ana shunday insonlar protitipi hisoblanadi. Unga konflekt qilib “Beg‘am” obrazi olingan dramaturg asar qahramonlarini nomlashda ham katta e’tibor qaratgan. Chunki “beg‘am” g‘amsiz hech nima bilan ishi yo‘q Inson ko‘z oldimizda gavdalanadi. Asardagi bu obraz ham ma’lum ma’noda ana shunday hislatlarga ega Insondir. Dramaturg bu obrazda jamiyatdagi shu kabi insonlar prototipini ko‘radi. Dramaturg asarda mana shu muammoni qandaydir nozik, kundalik turmushimizdagi bir hodisa sifatida talqin qilishga intiladi. Muallif Olimni inson vijdonini uyg‘otuvchi bir yo‘lboshlovchi sifatida ko‘radi. Asarning oxirgi xulosasida O‘z ildizini kesayotgan insoniyat haqida “Tabiat qotillari ” deya nom olayotgan bugungi kunda o‘z nafsini deb muhit va vaziyatdan foydalanib qolayotgan insonlar taqdirini olib chiqib biz o‘ylaymizki ayni global va umumbashariy muammoni hal qildi.

Muallif o‘z qahramonlariga: Tabiatda har bir zarra-qumning ham o‘z o‘rni bor. Tabiat muvozanatini buzishga hech kimnnig haqqi yo‘q... degan fikrni tushuntira oldi. Tinimsiz so‘roq qilinayotgan inson qalbi kechinmalari ham o‘tkir bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

Olim: Ayollar bepusht, yosh qizlar bo‘qoq, o‘smirlar tishsiz, hatto og‘ildagi sigirlar nogiron buzoq tug‘ib, hayvonlarning og‘zi irib tushayotgan bir paytda siz, mana shu ajdarho yo‘lida imkon qadar g‘ov bo‘lib turgan, o‘rmonni kesib yo‘qotmoqchisiz! Siz qotillik qilishdan ham toymayapsiz.

Tolib: Ona tabiatimiz yurtimiz bag‘rida ulg‘ayayotgan o‘g‘il-qizlarimizning kelajakda sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishi uchun ham muhim ahamiyatga ega muqaddas barhayotlik beshigidir. Bu beshikda esa yurtning sog‘lom bolalari ulg‘ayadi.

Alloh taola Qur’oni Karimda marhamat qiladi: U yerni sizlar uchun beshik (qarorgoh) qilib qo‘ydi va unda yo‘llar paydo qildi hamda osmondan suv (yomg‘ir, qor) yog‘dirdi. Bas, Biz u (suv) bilan turli o‘simliklar navlarini undirib chiqardik. Sizlar (ulardan) tanovul qiling va chorvalaringizni boqing! Albatta, bunda aql egalari uchun alomatlar bordir. (Toho surasi, 53-54 oyatlar). Dramadagi antogonistik muammolar muallif tomonidan sabablari o‘rganilib asarning g‘oyasidan kelib chiqib yangicha yo‘sinda qahramonlar orasidagi o‘zaro konflekt holatlar yechiladi. Ya’nikim tabiatga zarar keltirayotgan To‘ra va uning yonidagilari o‘z xatolariga

yarasha jazosini oladi. Olim va Go‘zal esa ezgu ishlarini davom ettirishadi. Janr sifatidagi drama namunasida insonni og‘ir mushkulotlarga soladigan jiddiy va kuchli hayotiy qarama-qarshilikka asoslaniladi, “ammo ularning yechiluvchi har vaqt baxtiyor shakldadir, chunki ularning mohiyati mash’um falokatni talab qilmaydi”. Pyesani yaratish uchun uning muallifidan davrning dolzarb masalalarini ixcham shaklda mohirlik bilan ifodalash, dramatik harakatni butun asar davomida qizil ip kabi o‘tkazish, qiziqarli, o‘tkir voqealarni topish, kuchli konfliktlarni yaratish, puxta harakterlar zaminida paydo bo‘ladigan chuqur ichki kechinmalarni berish, monolog va dialoglarni bir-biriga mantiqan uzviy bog‘laydigan tilni ishlash talab etiladi. Dramaning badiiy adabiyotning qiyin turi deb atalishi yana shundaki, unda voqealarni shunday ko‘rsatish kerakki, ular ixcham ravishda namoyon etilishini, personajlarning xarakterini so‘z va yumush bilan elastik holda, aniq va to‘liq ochishi, tushuntirish, bayyon etish, izoh berishdan to‘la ravishda xoli bo‘lishni, keraksiz tafsilotdan qocha bilish san’atini egallashni talab etadi.

Ijodkor missiyasi esa bu anglamlarni anglatish, sezimlarini sezdirish, bilganlarini bildirishdan iboratdir. Bugungi kun Insoni ilohiy bir yaratiq ekanligini anglashi bilan dramaturgiyamizga yangicha ruh olib kirdi. Dramaturglarimizning ijodiy takomili bosqichlarida zamon va inson konsepsiyasi o‘zak mehvarni belgilab kelganligini kuzatishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Ikkinchi nashri –T.: O‘qituvchi, 1986. –B. 74.

2.Sharq yulduzi jurnali. 2013yil. 4-5 son.

3.Izzat Sulton. Teranlik // «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi. – 1984. 16 dekabr.

## CONCEPTS HYGGE AND GEZELLIGHEID AS A BASIS OF THE DUTCH AND DANISH LINGUISTIC PICTURES OF THE WORLD

**E.V. Volkova**
Senior Lecturer at the English Language Department,
Tula State Lev Tolstoy Pedagogical University (Russia)
volhelena@mail.ru

**Abstract:** The article touches upon the problems concerning the peculiarities of the national identity in the sphere of the interrelation of concepts and cultures. The semantic ability of a concept to represent the unique, belonging to a certain nationality, features of ethnic character of communication participants of the linguacultural society was taken as a basis. The concepts HYGGE and GEZELLIGHEID, embodying the national identity of the inhabitants of the Dutch Kingdom and Denmark, were studied as a basic component for analysis in the work.

**Key words:** cultural concept, linguacultural environment, conceptualization, categorization, linguistic and conceptual pictures of the world, conceptual essence.